

## AUTIZM SINDROMI SABABLARI, TURLARI, VA MAXSUS YORDAM BERISH YO'LLARI

*Bayjonov Furqat Baxramovich*

*Alfraganus Universiteti*

*Pedagogika va psixologiya kafedrasi dotsent v.b*

*Fayziyeva Muslima Abduvahob qizi*

*Alfraganus Universiteti 2-kurs talabasi*

[muslimafayziyeva0102@gmail.com](mailto:muslimafayziyeva0102@gmail.com)

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada autizm tushunchasi haqida umumiy ma'lumot va autizm kelib chiqish sabablari. Autizm turlari, belgilari, kasallikni oldini olish va davolash, hamda bolalar autizmi va katta yoshdagilar autizmi haqida va ularga beriladigan maxsus yordam haqida yoritib berilgan.

**Kalit so'zlar:** Autizm, bolalar autizmi ASB (autistic spektruz buzilishlari sindromi), ruhiy buzilish, muloqot, maxsus yordam.

**Аннотация:** В этой статье представлен обзор понятия аутизма и причин аутизма. Описаны типы, симптомы, профилактика и лечение аутизма, детский аутизм и аутизм взрослых, а также специальный уход.

**Ключевые слова:** аутизм, детский аутизм АСБ (синдром расстройства аутистического спектра), психическое расстройство, общение, специальная помощь.

**Abstract:** This article provides an overview of the concept of autism and the causes of autism. Autism types, symptoms, prevention and treatment, childhood autism and adult autism and special care are covered.

**Key words:** Autism, children's autism ASB (autistic spectrum disorder syndrome), mental disorder, communication, special help.

Autizm (grek tilida "autos"- o'zim) bu atama 40 yil oldin kirib kelgan, munozarali, lekin ba'zilarning baxslashib kelishicha, shaxsga odatda bolaga «autistlik» deb tashxis qo'yish mumkin. Autizm "bolalar autizmi" deb ham

ataladi. Inglizcha: “infantile autism”, bolalik autizmi “childhood autism”, erta go‘daklik-bolalik autizmi “early infantile childhood autism”, Kanner sindromi yoki Kanner autizmi “Kanners autism”, DSM-IV - autistik buzuqlik “autistic disorder” - miya rivojlanishining buzilishidan kelib chiqadigan va ijtimoiy o‘zaro ta’sir va aloqada aniq va keng qamrovli tanqislik, shuningdek cheklangan qiziqishlar va takrorlanadigan harakatlar bilan tavsiflangan kasallik. Bolalik autizmi turlicha bo‘lib, intellektual nutqni rivojlantirish darajalari o‘zgarib turadi.

Autizm atamasi birinchi bor shvetsariyalik psixiatri Ye. Bleyler tomonidan 1910-yilda shizofreniya kasalligining belgilaridan biri sifatida ishlatildi. Autizm holati shizofreniya kabi ruhiy kasallikda ko‘proq namoyon bo‘ladi. Bola vaqt ni sezmaydi, hozirda ro‘y berayotgan voqeа hodisalarni o‘tgan yoki kelasi zamon bilan almashtiradi, real voqeа hodisalarni fantastik mavhum voqeа hodisalar bilan aralashtirib yuboradi. Autizm holatida bola faoliyati sustlashadi yoki keraksiz, noaniq faoliyat bilan shug‘ullanadi. Bolaning xulq-atvori buziladi, o‘yin faoliyati, qiziqishi sustlashadi, ma'yus holatda yuradi, kattalar va tengdoshlari bilan aloqada bo‘lmaydi, hech kim bilan gaplashishni istamaydi, ba’zilarda indamaslik (mutizm holati) kuzatiladi.

1943-yilda ingliz psixiatri Leo Kenner davolash amaliyotida 11 yoshli bolaning xulq-atvori, yurish turishida o‘xshash belgilarni kuzatib, «ilk yoshdagи bolalar autizmi» atamasini kiritdi. U kuzatgan barcha bolalardagi belgilar hozirgi kunda ham autizmnинг asosiy belgilari sifatida o‘rganilmoqda. Shunga qaramay, ko‘p yillar mobaynida bolalar autizmi aqli zaiflik, shizofreniya kabi va boshqa ruhiy kasalliklarning belgilari sifatida o‘rganilgan edi. Faqatgina 1981-yildan boshlab bolalar autizmi mustaqil nuqson sifatida qabul etildi. Hozirgi kunda bolalar autizmi bosh miyaning rivojlanishidagi kamchiliklardan kelib chiqadigan mustaqil nuqson sifatida o‘rganilmoqda. Biroq bosh miyaning rivojlanishidagi nuqsonlarning kelib chiqish sabablari hali ham noaniq. Ayrim olimlarning fikriga ko‘ra, bolalar autizmi irsiy kasallik bo‘lib hisoblansa, boshqalari esa autizm holati aqli zaiflikdan kelib chiqqanligini ta’kidlaydilar.

Autizm - bu miya rivojlanishining buzilishidan kelib chiqadigan kasallik bo'lib, ijtimoiy o'zaro ta'sir va aloqada sezilarli va keng tarqalgan nuqsonlar, shuningdek cheklangan qiziqishlar va takrorlanadigan faoliyat bilan tavsiflanadi. Autizmli bolalar yuqori xotira qobiliyatiga ega. Matematika va musiqada iqtidorli va hatto bir nechta tillarni o'rganishi mumkin. Ko'pgina hollarda, bu kasallik tug'ma hisoblanadi. Tibbiy tasnif autizmni asab tizimining kasalliklari deb tasniflaydi, ammo autizm kasallik emas, balki ruhiy rivojlanishdagi alohida holat degan fikr mavjud. Kasallik o'g'il bolalarda qizlarga qaraganda 4 baravar ko'proq aniqlanadi.

**Adabiyotlar tahlili.** Mashhur autistik ayol Templ Grandin neyrotipiklar yoki normal nerv sistemasi rivojlanishga ega bo'lgan odamlarning ijtimoiy o'zaro ta'sirini tushuna olmaslikni o'zinining hissiyotini "Marsdagi antropolog" kabi his qilish deb ta'rifladi.

L. Kannerning fikricha, erta bolalik davridagi autizm sindromi quyidagi uchta ko'rsatkichni birlashtiradi: autistik tashvishlar, stereotip, odatiy xattiharakatlar, nutq tilidagi o'ziga xos nuqsonlar.

**Autizm sabablari.** Bolalarda autizmning sabablari hali ham noma'lum, ammo kasallikning rivojlanishiga turtki bo'lishi mumkin bo'lgan gipotezalar ro'yxati ishlab chiqilgan va klinik jihatdan tasdiqlangan:

- genetik moyillik;
- homiladorlik paytida homila mutatsiyalari;
- ba'zi vaktsinalarning oqibatlari (gipoteza inkor etib bo'lmaydigan tasdiqni topmagan);
- rivojlanish paytida homilaning va hayotning birinchi oylarida bolaning miyasi shikastlanishi;
- axborot blokadasi tufayli idrokning buzilishi;
- miya yarim sharlarining o'zaro ta'sirining buzilishi;
- tanadagi serotoninning noto'g'ri almashinuvi;
- kech farzand ko'rish, ya'ni otaning yoshi katta bo'lsa;

- xomilaning rivojlanish bosqichida xromosomada izdan chiqish holatlari;
- ona qornida rivojlanish bosqichida yuzaga keladigan tug'ma nuqsonlar.

Autizmning deyarli barcha holatlarida kasallik bolalik davrida aniqlanadi. Vaqt o'tishi bilan kasallikning namoyon bo'lishi va alomatlari o'zgarmaydi va rivojlanmaydi, ular shunchaki autizmga chalingan bola balog'at yoshiga yetganida sezila boshlaydi. Ammo kamdan-kam hollarda autizm balog'at yoshida paydo bo'lishi mumkin. Kattalardagi autizm-bu miya tuzilishidagi jiddiy o'zgarishlar bilan birga keladigan ijtimoiy o'zaro ta'sirning izdan chiqishi. Voyaga yetgan kasallik atipik autizm deb ataladi. Ushbu yoshdagi autizmning sabablari ham to'liq tushunilmagan. Kasallikning rivojlanishiga turki bo'lib xizmat qiladigan tasdiqlangan omillarning to'liq ro'yxati yo'q. Ammo kattalik davrida autizmning paydo bo'lishi tabiatni to'g'risida bir qator nazariyalar mavjud. Sabab bo'lishi mumkin:

- surunkali depressiya;
- ruhiy kasalliklar;
- miya shikastlanishi.

**Autizm turlari.** Autizm belgilarini namoyon bo'lish darajasiga ko'ra guruhlarga ajratishdan tashqari, yana bir tasnif mavjud. Rossiyada 1987-yilda autizmning barcha ko'rinishlarini paydo bo'lishi sababli 7 turga ajratadigan sxema ishlab chiqilgan:

- Asperger sindromi;
- Kannerning erta klassik infantil autizm sindromi;
- Xromosoma aberratsiyasidan kelib chiqqan autizm;
- Rett sindromi mavjudligidan kelib chiqqan autizm;
- Shizofreniya tufayli kelib chiqqan endogen va xurujsimon autizm;
- Kelib chiqishi noma'lum autizm.

Keyinchalik ushbu tizim autizmning ma'lum sabablarini va uning turlarini ASB (autizm spektrining buzilishi) umumiyligini qisqartmasi ostida birlashtirishga imkon berdi.

**Autizmning asosiy belgilari.** Bir yoshdan to'uch yoshgacha davrda to'liq namoyon bo'ladi. Ota-onalar quyidagi belgilarga e'tiborli bo'lishlari kerak;

- bolaning ota-onasi bilan bo'lishini yoqtirmaslik (qo'liga olishi, quchoqlashishi, o'pishi, silashi);
- uch yashar bola nutqining rivojlanmaganligi;
- biron bir kishi bilan bo'lishdan ko'ra bir o'zi bo'lishini yoqtirishi;
- ular buyumlarni doim bir xil tartibda qo'yib chiqadilar;
- tevarak-atrof bilan aloqada bo'lishni istamasligi, qiziqmaslik. Odatta, bola nutqi hali rivojlanmagan bo'lsa ham, u o'z istak-xohishlarini imo-ishora, harakat bilan bildiradi. Bola autizmida esa bu kuzatilmaydi;
- bola ko'zingizga qaramaydi;
- bolaning harakatlari, imo-ishoralari hech narsani bildirmaydi, asabiylashganini ko'rsatadi;
- bola bir tonda, ifodasiz, xuddi bir yod olgan matnni ifodalayotganidek gapiradi. Bola o'zi yaxshi gapira olmasa ham, uning aks-sado nutqi, ya'ni exolaliya-kimnidir ketidan qaytarish qobiliyati yaxshi bo'ladi;
- odattdan tashqari idrok etish reaksiyalari (ovozga, hid, ta'm, ushlab ko'rishlarga), masalan, ovozdan qattiq qo'rqib tushishi, ma'lum hiddan tushkunlikka tushishi.

**Kattalarda autizm belgilari.** Kattalardagi autizm belgilari kasallikning shakliga va uning kechishiga qarab farq qilishi mumkin. Bunga xos alomatlar quyidagilar hisoblanadi:

- yuz ifodalarining kamligi va imo-ishoralarning yetarli emasligi;
- jamiyatda qabul qilingan aloqa qoidalarini tushunmaslik;
- atrofdagi odamlarning his - tuyg'ulari, motivlarini tushunmaslik;
- o'z xatti-harakatlarini tushunmaslik;

- atrofdagi odamlar bilan do'stona yoki boshqa yaqin munosabatlarni o'rnatish imkoniyatining yo'qligi;
- biror kishiga murojaat qilish qiyinligi;
- so'z boyligi yetarli emas, bir xil iboralarni muntazam takrorlash;
- tanish muhitda xotirjamlikni saqlash qobiliyati va unda biroz o'zgarishlar bo'lsa bezovtalanish;
- joylar va narsalarga bog'lanish va ularda o'zgarish sodir bo'lsa bezovtalanish;

Agar autizm yengil shaklda bo'lsa, unda 20-25 yoshga kelib, odam allaqachon qarindoshlari yoki vasiylaridan alohida yashashi va o'z muammolarini mustaqil ravishda hal qilishi mumkin. Agar bu shakl autistga bunday turmush tarzini olib borishga imkon bermasa, u odatda butun umri davomida qarindoshlarining qaramog'ida qoladi.

**Autizmli bolalarga maxsus yordam.** Rossiyalik olimlarning fikriga ko'ra, autizmli bolalarning 60 foizi umumiy ta'lif dasturlarida, 30 foizi maxsus ta'lif dasturlarida, 10 foizi esa, agar tuzatish yordami o'z vaqtida ko'rsatilsa, oilada ijtimoiylashuv imkoniyatiga ega. Biroq, tuzatish yordamisiz bolalarning 75 foizi ijtimoiy muhitga moslasha olmaydi, 22-23 foizi biroz moslashadi va faqat 2-3 foizi ijtimoiy moslashuvning yetarli darajasiga erishadi. Autizmli bolalarga maxsus yordam ko'rsatish tizimi birinchi marta o'tgan asrning 60-yillarida AQSh va G'arbiy Yevropa mamlakatlarida shakllana boshladi. Yevropada autizmli bolalar uchun birinchi muktab 1920-yilda Daniyada ochilgan. Keyinchalik ba'zi xususiy muassasalar autizmli bolalarga yordam berishni boshladilar, ammo o'sha paytda aniq o'qitish va tuzatish uchun uslubiy va ilmiy asoslar yo'q edi. Hozirgi vaqtda erta bolalik autizmini tuzatishning turli uslubiy asoslari mavjud. Operant o'rganish (xulq-atvorni davolash) umumiy xulq-atvor psixologiyasiga asoslanadi.

Ushbu tuzatish usuli Amerika Qo'shma Shtatlar va boshqa mamlakatlarda keng qo'llaniladi. Usulning asosi - zarur xulq-atvor va harakatni shakllantirish, ijtimoiy va maishiy moslashish, nutqni rivojlantirish, o'rganish va ishslash ko'nikmalarini shakllantirish uchun tashqi sharoitlarni maxsus ta'minlash. Bu

usulda o‘qitilgan bolalarning 50-60 foizi umumta’lim maktablari o‘quv dasturini o‘zlashtirib, keyin o‘rta va oliv o‘quv yurtlarida o‘qishni davom ettirishi mumkin. Chet elda operant ta’lim usulidan tashqari amaliyotda ko‘pincha TEASSN dasturi (E. Shopler, R. Reyxleber), xolding terapiyasi (M. Uels), kundalik turmush sharoitlarini ta’minalash orqali davolash (K. Kitahara) va boshqalar qo‘llaniladi.

Autizmnning yengil holatida tarbiyachi bolaning kun tartibini to‘g‘ri tashkil etishi muhim. Bolaning faoliyatini uyg‘unlashtirish, guruhdagi bolalar bilan yaqinlashtirish, psixoterapevtik tushuntirish ishlarini izchillik bilan olib borishi maqsadga muvofiqdir. Tarbiyachi ota-onalar bilan tushuntirish ishlarini o‘tkazishi zarur. Bolaga haddan tashqari ko‘p e’tibor bermaslik. Bola oilada o‘zini hamma qatori his etishini ta’minalash. Bolaga qo‘lidan keladigan ishlarni buyurish va bajargan ishini maqtab qo‘yish, bolani qo‘llab-quvvatlash. Maktabgacha ta’lim muassasasi xodimlari bola uchun qulay sharoit yaratib berib, unga yaxshi muomalada bo‘lgan holda uning ijtimoiy moslashuvini amalga oshirishga yordam berishlari lozim. Autizmnинг og‘ir holatlarida bola shifokor nazoratida dori-darmonlar bilan davolanishi maqsadga muvofiqdir.

**Autizm davolash.** Bolalarda autizm uchun zarur bo‘lgan davolanish quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

- xulq-atvor terapiyasi dasturlari;
- "rivojlanish modellari"dan foydalanish;
- logoped terapiyasi;
- ijtimoiy ko‘nikmalarni o‘rgatish;
- mehnat terapiyasi;
- antidepressantlar;
- antipsixotiklar;
- talvasaga qarshi preparatlar.

**Xulosa:** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, autizm bu ruhiyatning o‘ziga xos holati bo‘lib, bemor tashqi olam, atrofidagilar bilan muloqot qilishni istamaydi, hissiyotlarni tushunishmaydi. Autizm – shaxsning muloqotga kirishishi qiyin kechadigan va qo‘zg‘aluvchan nevrotik buzilishlar oqibatida sodir

bo‘ladigan holat. Ota-onalar pedagog, psixiatr, psixolog, pediatr bilan hamkorlikda bemor bolalar bilan barvaqt shug‘ullansalar, ularning xatti-harakatlarini ijobiy tomonga yo‘naltirishlari mumkin. Shuni ta’kidlab o’tish zarurki bolalarda va kattalarda autizmni qancha vohli aniqlasak uni davolash va yengillashtirish shuncha oson va yengil holda o’tadi.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. Inklyuziv ta’lim: nazariya va metodika. Chirchiq 2022-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi “Inklyuziv ta’lim nazariyasi” Toshkent – 2024-yil.
3. S.O.Safarova D.R.Madazizova Maxsus pedagogikaning klinik asoslari. Toshkent 2022-yil.